



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

Markaz kengashining 2025-yil 26-iyundagi 3-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

Markaz kengashining 2025-yil 26-iyundagi 3-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga
yo'naltirish maqsadida **buyuraman**:

1. Markaz kengashining 2025-yil 26-iyundagi 3-sonli yig'ilish qarorlari ijro
uchun qabul qilinsin.
2. Markaz kengashi qarorlarida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida
va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun
muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni
umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga
yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Markaz direktori v.v.b.



S.Murodov

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-iyunda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun

3/1 -son
Samarqand shahri

**O'quv jarayonini sifatli tashkil etish
va tinglovchilar faolligini nazorat qilish
yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar va
malaka oshirish kursi rejalarining bajarilishi
hamda jurnallarni yuritilish holati to'g'risida**

Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i A.Abdullayevning "O'quv jarayonini sifatli tashkil etish va tinglovchilar faolligini nazorat qilish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar va malaka oshirish kursi rejalarining bajarilishi hamda jurnallarni yuritilish holati to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i A.Abdullayev so'zga chiqdi: – O'quv jarayonini sifatli tashkil etish va tinglovchilar faolligini nazorat qilish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar va malaka oshirish kursi rejalarining bajarilishi hamda jurnallarni yuritilish holati bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi. Yanvar oyi rejada 1027 ta tinglovchidan, amalda 1027 ta tinglovchi qabul qilindi va 100% reja bajarildi. Shundan 19 nafar tinglovchi safdan chiqarildi.

-Tinglovchilar bilan uzluksiz ishlash uchun alohida telegram guruh ochildi.

-Tinglovchilar davomatini olish elektronlashtirildi.

<https://drive.google.com/drive/folders/lagFrlwvpoWRgv66njjZb5kHYcsZbD4uO>

Tizimdagi yangiliklari



Samarqand viloyat PMM guruhi fevral oyida ochilgan 5 oy ichida 2500 nafar pedagoglarni bir joyga jamlagan umumiy guruh shakllantirildi. Guruhdagi pedagoglar uzluksiz ravishda yangiliklardan xabardor bo'lib borishi bilan bir qatorda tizimdagi yangiliklardan birinchilardan bo'lib xabar topishlari va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Guruh faoliyati shunday kelgan taqdirda 5 yildan so'ng guruh 80% viloyat o'qituvchilarini bir joyga jamlagan Mahorat maydoniga aylanishi kutilmoqda



Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazida FACE CONTROL tizimi joriy qilindi va tinglovchilar davomati avtomatik ravishda olib kelinmoqda. Tinglovchilarga qulaylik yaratish va shaffoflik tamoyillarida ishlash maqsadida har ikkinchi yoki uchunchi juftliklarda davomat olish tizimi ham mavjud bo'lib, kelmagan yoki kech qolib kelgan tinglovchilar uchun qayta topshirish kunlari joriy qilindi va natijada tinglovchilar kech qolishi va sababsiz dars qoldirishining oldi olindi.

-Qoldirilgan dars soatlarini o'zlashtirishning yagona shakli ishlab chiqildi va javob olish uchun ariza yozish tizimi tugatildi.

Fevral oyi uchun rejada 1131 ta tinglovchidan, amalda 1134 ta tinglovchi qabul qilindi. Shundan 32 nafar tinglovchi safdan chiqarildi, 2 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.

-Umumta'lim maktablarida maktab amaliyotchi psixologi huquqini beruvchi qayta tayyorlov kursi ochildi.

-Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va Texnologiya fani o'qituvchisi kasbiy qayta tayyorlash kurslarini ochish uchun hujjatlar Vazirlikka yuborildi.

-tinglovchilarning loyiha ishlari kafedralar kesimida qabul qilindi.

Mart oyi rejada 1143 ta tinglovchidan, amalda 1152 ta tinglovchi qabul qilindi. Shundan 14 nafar tinglovchi safdan chiqarildi. 4 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.

-yanvar, fevral, mart oylari guruh jurnallari bo'limga qabul qilindi.

-tinglovchilarning loyiha ishlari kafedralar kesimida qabul qilindi.

Yakuniy nazorat attestatsiya test sinovlari tashkillashtirildi va o'tkazildi.



1-chorak yakuni bo'yicha qo'yilgan barcha rejalar bajarildi.

Aprel oyida rejada 1159 ta tinglovchidan, amalda 1206 ta tinglovchi qabul qilindi. Shundan 20 ta tinglovchi safdan chiqarildi, 20 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.

-aprel oyi guruh jurnallari bo'limga qabul qilindi.

-tinglovchilarning loyiha ishlari kafedralar kesimida qabul qilindi.

Yakuniy nazorat attestatsiya test sinovlari tashkillashtirildi va o'tkazildi.

May oyida rejada 1126 ta tinglovchidan, amalda 1139 ta tinglovchi qabul qilindi. Shundan 38 ta tinglovchi safdan chiqarildi, 43 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.


-may oyi guruh jurnallari bo'limga qabul qilindi.

Yakuniy nazorat attestatsiya test sinovlari tashkillashtirildi va o'tkazildi.

Birinchi yarim yillik bo'yicha rejada 5586 nafar tinglovchidan, amalda 5658 nafar tinglovchi amalda qabul qilindi. Shundan 122 ta tinglovchi safdan chiqarildi, 50 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.



REJA VA QABUL



Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i A.Abdullayevning "O'quv jarayonini sifatli tashkil etish va tinglovchilar faolligini nazorat qilish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar va malaka oshirish kursi rejalarining bajarilishi hamda jurnallarni yuritilish holati to'g'risida" axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. Barcha kafedra mudirlari va guruh mas'ullariga:

- har hafta seshanba kuni guruh jurnallarini yuritilishini nazorat qilish;
- dars jarayonlarining sifatli va samarali tashkil etilishiga jiddiy e'tibor

qaratilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash markazning akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i A.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



S.Murodov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-iyunda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun

*3/2 -son
Samarqand shahri*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda
Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida
belgilangan ustuvor vazifalarni Ijtimoiy va
amaliy fanlarni o'qitish metodikasi hamda
Tillarni o'qitish metodikasi kafedralarida
bajarilishi holati to'g'risida**

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi, Ishchi guruh a'zosi H.Qoraboyevning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi hamda Tillarni o'qitish metodikasi kafedralarida bajarilishi holati to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi, Ishchi guruh a'zosi H.Qoraboyev so'zga chiqdi: – Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirishning zamonaviy turlari va shakllarini keng joriy etish maqsadida kafedrada xalq ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, 2024-yilda 2-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan (K.Suvonova tomonidan markazning professor-o'qituvchilari va kirs tinglovchilariga "Art of living(san'at bilan yashash va ruhiy barqarorlikka erishish" nomli qisqa muddatli kursi).

An'anaviy, masofaviy va boshqa shakllarni o'z ichiga olgan malaka oshirishning uyg'unlashgan kurslarini tashkil etishda kafedrada tarix, tarbiya, ARM, texnologiya, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, BABM, Davlat va xuquq asoslar fanlaridan an'anaviy malaka oshirish kurslari tashkil qilingan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha taqdimotlar, tarqatma materiallar, majmualar tayyorlangan va yil davomida yangilanib borilgan.

Pedagogik mahorat markazini yuqori malakali professor-o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2024, 2025-yillarda maqsadli doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan kafedra a'zolari quyidagicha:

Kafedraning barcha o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini olgan va shu mavzular bo'yicha ish olib borishmoqda. Kafedra mustaqil tadqiqotchisi Oripov Jamshid Yaxshiboyevichning 2025-yil 16-yanvar kuni falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasini ilmiy semenaridagi muhokamasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Kafedra katta o'qituvchisi D Kushanovanning 2025-yil 16-mayda Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminari bo'lib o'tdi.

Kafedrada so'nggi bir yilda professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.

Samarqand, Navoiy hamda Namangan viloyatlari pedagogik mahorat markazlari hamkorligida Respublika miqyosida onlayn vebinar o'tkazilgan. Vebinarida kafedra o'qituvchilari G.Tagayev va o'qituvchi D.Kushanovalar "IX XII asrlarda ilm fanning rivojlanishi" mavzusini 5E modeli asosida tashkil etish bo'yicha ma'ruza qilgan.

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi tomonidan 2025-yil 20-may kuni tashkil etilgan "Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim paradigmalari. O'quvchi-yoshlarda XXI-asr ko'nikmalarini shakllantirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida kafedra dotsenti G. Tagayev "O'quvchilarda umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar kompetensiyasini 5 E modeli asosida shakllantirish" mavzusida ma'ruza qilgan.

Joriy yilning 9-aprel kuni markaz ARM va tasviriy san'at chizmachilik hamda musiqa madaniyati guruhi ma'sullari K.Suvanova M.Rasulova hamrohligida tinglovchilar A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot- kutubxona markaziga tashrif buyurishdi. Tinglovchilar axborot-kutubxona tarixi, kitobxon uchun xizmat turlari, kitoblar targ'iboti, maqsad va rejalari, ish faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Kafedra mudiei G.Tagayev tomonidan joriy yilning aprel, may, iyun oylari tarix fani kursi tinglovchilari uchun O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida seminar va ekskursiya darslari tashkil etilgan.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini ilmiy darajali kadrlar bilan ta'minlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari quyidagicha:

2025-yili kafedrada 13.75 shtat birligida, shundan 8 ta asosiy shtatda o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan, shundan asosiy shtatda ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar 3 nafarni tashkil etgan (37,5 %).

Professor-o'qituvchilar tomonidan nufuzli xalqaro bazalarda (SCOPUS, Web of science va Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bazalar) ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni: - 1 ta Scopus bazasidagi xorijiy jurnallarda (K.Xaydarov), 2 ta Web of science bazasidagi xorijiy jurnalda (G.Tagayev, K.Suvonova), 9 ta OAK tavsiya etgan jurnallarda, 56 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqola nashr ettirgan. Shuningdek, kafedrada hisobot davrida 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, 4 ta uslubiy ko'rsatma nashr etilgan.

2024-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

Kafedra professor-o'qituvchilari masofaviy malaka oshirish kurslarida qatnashib, 2025 yil yanvar-iyun oylarida jami 12 ta sertifikat olgan.

Xalq ta'limi xodimlarining salohiyatini oshirish, xalq ta'limida inson resurslarini rivojlantirishda kafedrada xodimlarning "Lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz

malakasini oshirishda "Ustoz-shogird" tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Pedagogika markazi professori A.Ibragimov rahbarligida kafedra tadqiqotchilari G.Tagayev, K.Suvonova, M.Rasulova, professor O'.Mavlonov rahbarligida D.Kushanova, O.G'aybullayev rahbarligida J.Oripovlar "Ustoz-shogird" tizimida ish olib borishgan.

Mahalliy va yetakchi xorijiy tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishda SamDU Tarix fakulteti, Falsafa kafedrası, A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot- kutubxona markazi, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bilan kafedra hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha:

Xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogik markazlarning malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trener guruhlarini shakllantirishda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkazilishi ta'minlangan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan viloyatda faoliyat olib borayotgan 5 nafar ilg'or o'qituvchilarining ish tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalar viloyat miqiyosida ommalashtirilgan.

Kafedrada mutaxassisliklar bo'yicha maktab darsliklarining quyi darajasidagi elementar ma'lumotlarni yetkazib beruvchi 5 ta telegram kanallar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Kafedrada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan belgilangan tumanlardagi «qizil» toifaga kiritilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etib kelingan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlari olib borilgan, ulug'allomalarning tug'ilgan sanalariga hamda davlatimiz ramzlariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilib kelingan. Kafedrada o'quv yili davomida markaz rasmiy veb-saytida 8 marotaba, OAV da 7 marotaba chiqish bo'lgan: 1 marotaba "Yoshlar olami" gazetasiga va bir marotaba Samarqand viloyat televideniya'sining "Inson qadri uchun" ko'rsatuvida kafedra o'qituvchilari intervyu berishgan.

Kafedraga tegishli barcha fanlar kesimida ilg'or xorijiy metodlarini (Kembridj metodikasi, Loyiha texnologiyasi, Ta'limda sun'iy intellekt...) darslar mazmuniga singdirilib kelingan. Xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. Kafedra ish rejasida berilgan uslubiy qo'llanmalarni nashr ettirilishi talab darajasida emas. Masalan, G.Tagayev, K.Suvonova, J.Oripov,

M.Rasulovlar tomonidan fevral-iyun oylarida tayyorlanishi lozim bo'lgan uslubiy ko'rsatma va nashr ishlari bajarilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi doirasida "Loyihaga asoslangan o'qitish" mavzusida 36 soatlik qisqa muddatli kurs tashkil etilgan.

Institut va Hududiy markazlarga professional, malakali va zamonaviy talablarga javob beradigan ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida qabul qilish tartibini joriy etsish borasida ishlar olib borilgan. Kafedraga xorijiy mutaxassis jalb etilmagan.

2025-yil 1-yanvardan boshlab viloyat miqyosida pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati", tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa, shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etilishida kafedra o'qituvchilari ishtirok etib kelishmoqda.

Kafedra faoliyatining umumiy monitoringi:

Kafedra professor-o'qituvchilarining 2024-yilda shaxsiy ish rejalarida belgilangan vazifalari to'liq bajarilgan. Shuningdek kafedraning 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan, **ammo bajarilmagan kamchiliklari mavjud:**

1. 2025-yilda 3-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan.

2. Kafedrada o'rganish davomida professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.

3. 2025-yilda kafedrada 3 ta SCOPUS bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola nashr etish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kungacha maqola jo'natilmagan.

4. 2025-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

5. 2024-2025-yillarda kafedrada faoliyat yuritayotgan ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejasidagi nashr ishlari belgilangan muddatlarda tayyorlanmagan.

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirishning zamonaviy turlari va shakllarini keng joriy etish maqsadida kafedrada xalq ta'limi xodimlarining kasbiy

ehtiyojlaridan kelib chiqib, 2024-yilda 3 ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan (M.Yakubjanova "Inklyuziv ta'lim" nomli qisqa muddatli kursi).

An'anaviy, masofaviy va boshqa shakllarni o'z ichiga olgan malaka oshirishning uyg'unlashgan kurslarini tashkil etishda kafedrada ona tili, rus tili, ingliz tili, nemis tili, fransuz tili fanlaridan an'anaviy malaka oshirish kurslari tashkil qilingan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha taqdimotlar, tarqatma materiallar, majmualar tayyorlangan va yil davomida yangilanib borilgan.

Pedagogik mahorat markazini yuqori malakali professor-o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2024, 2025-yillarda maqsadli doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan kafedra a'zolari quyidagicha:

Kafedraning barcha o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini olgan va shu mavzular bo'yicha ish olib borishmoqda. Kafedrada Yakubjanova Muhayyo Kadirjanovna SamDU mustaqil tadqiqotchisi, Ruziyeva Nigora Zoxidjonovna NamCHTI mustaqil tadqiqotchisi, Rustamova Zuxro Turayevna SamDU mustaqil tadqiqotchisi.

Kafedrada 2025-yilda Ruziyeva Nigora Zohidjonovna professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda Malaziyada malaka oshirishi va stajirovkada qatnashmoqda.

2025-yil 7-fevral NAVOIYNI ANGLASH SAODATDIR Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 584 yilligi munosabati bilan "Navoiyni anglash saodatdir" mavzusida ARM va Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida ona tili va adabiyot guruhi tinglovchilari tomonidan markaz professor-o'qituvchilari, tinglovchilari ishtirokida Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

2025-yil 13-fevral TA'LIMDAGI ILG'OR ISH TAJRIBALAR NAMOYISHI O'TKAZILDI Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi M.Yakubjanova rus tili guruhining mahoratli o'qituvchilari va ARM hamkorligida hududiy markaz kutubxonasida ilg'or ish tajribalar namoyishi tashkil etildi.

2025-yil 14-fevral DARSLARDA BOBURNING PEDAGOGIK MEROSI TAHLIL QILINDI Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida Rus tili fani o'qituvchilari 2-guruh tinglovchilari bilan "Bobur-benazir siymo" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

2025-yil 21-fevral kuni Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi tomonidan "Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati" respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Anjumanda Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri, dotsent Mohinabonu Raximova "Alisher Navoiy asarlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusida ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

2025-yil 27-aprelda XALQARO SEMINAR Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi I. Raimkulova "Rus tilini chet tili sifatida o'qitishning lingvodidaktik asoslari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy seminarda ma'ruza qildi.

2025-yil 4-mayda INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR Joriy yil 1-2-3 may kunlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan "Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish: muammo va yechimlar" mavzusida o'quv-seminari tashkil etildi. Unda Yakubjanova Muhayyo Kadirjanovna va Ruziyeva Nigora Zohidjonovnalari ishtirok etib sertifikatlarga ega bo'lishdi.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini ilmiy darajali kadrlar bilan ta'minlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari quyidagicha:

2025-yili kafedrada 9.25 shtat birligida, shundan 8 ta asosiy shtatda o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan, shundan asosiy shtatda ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar 3 nafarni tashkil etgan (37,5 %).

Professor-o'qituvchilar tomonidan nufuzli xalqaro bazalarda (SCOPUS, Web of science va Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bazalar) ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni: - 1 ta Scopus bazasidagi xorijiy jurnallarda (D.Alimova), 8 ta OAK tavsiya etgan jurnallarda, 46 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqola nashr ettirgan. Shuningdek, kafedrada hisobot davrida 2 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 6 ta uslubiy qo'llanma, 5 ta uslubiy ko'rsatma nashr etilgan.

2024-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

Kafedra professor-o'qituvchilari masofaviy malaka oshirish kurslarida qatnashib, 2025-yil yanvar-iyun oylarida jami 10 ta sertifikat olgan.

Xalq ta'limi xodimlarining salohiyatini oshirish, xalq ta'limida inson resurslarini rivojlantirishda kafedrada xodimlarning "Lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirishda "Ustoz-shogird" tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, kafedrada D.Urinbayeva, M.Yakubjanova, N.Ruziyeva, M.Raximova K.Normamatova, D.Alimova, Z.Rustamovalar "Ustoz-shogird" tizimida ish olib borishgan.

Mahalliy va yetakchi xorijiy tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishda SamDU filologiya fakulteti, rus tili, o'zbek tili, tojik tili, ingliz tili kafedralari, A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bilan kafedra hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha:

Xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogik markazlarning malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trener guruhlarini shakllantirishda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkazilishi ta'minlangan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan viloyatda faoliyat olib borayotgan 4 nafar ilg'or o'qituvchilarining ish tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalar viloyat miqyosida ommalashtirilgan.

Kafedrada mutaxassisliklar bo'yicha maktab darsliklarining quyi darajasidagi elementar ma'lumotlarni yetkazib beruvchi 3 ta telegram kanallar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Kafedrada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan belgilangan tumanlardagi «qizil» toifaga kiritilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etib kelingan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlari olib borilgan, ulug'allomalarning tug'ilgan sanalariga hamda davlatimiz ramzlariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilib kelingan. Kafedrada o'quv yili davomida markaz rasmiy veb-saytida 20 marotaba, OAV da 2 marotaba chiqish bo'lgan: 1 marotaba "Yoshlar olami" gazetasiga va bir marotaba Samarqand viloyat televideniya'sining "Inson qadri uchun" ko'rsatuvida kafedra o'qituvchilari intervyu berishgan.

Kafedraga tegishli barcha fanlar kesimida ilg'or xorijiy metodlarini (Kembridj metodikasi, Blum taksonomiyasi, Ta'limda sun'iy intellekt....) darslar mazmuniga singdirilib kelingan. Xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. Kafedra ish rejasida berilgan nashr ishlari talab darajasida emas. Masalan, M.Raximova, D.Yunusovalar tomonidan fevral-iyun oylarida tayyorlanishi lozim bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr ishlari bajarilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi doirasida M.Yakubjanova tomonidan "Inklyuziv ta'lim" mavzusida 36 soatlik qisqa muddatli kurs tashkil etilgan.

Institut va Hududiy markazlarga professional, malakali va zamonaviy talablarga javob beradigan ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida qabul qilish tartibini joriy etsish borasida ishlar olib borilgan. Kafedraga xorijiy mutaxassis jalb etilmagan.

2025-yil 1-yanvardan boshlab viloyat miqyosida pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati", tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa, shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi

shakllari bosqichma-bosqich joriy etilishida kafedra o'qituvchilari ishtirok etib kelishmoqda.

Kafedra faoliyatining umumiy monitoringi:

Kafedra professor-o'qituvchilarining 2024-yilda shaxsiy ish rejalarida belgilangan vazifalari to'liq bajarilgan. Shuningdek kafedraning 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan, ammo bajarilmagan kamchiliklari mavjud:

1. 2025-yilda 3 ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan.

2. 2025-yilda kafedrada 3 ta SCOPUS bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola nashr etish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kungacha 1 ta maqola nashr etilgan.

3. 2025-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

4. 2024-2025-yillarda kafedrada faoliyat yuritayotgan ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejasidagi nashr ishlari belgilangan muddatlarda tayyorlanmagan.

5. Kafedra professor-o'qituvchilarining shaxsiy ish rejalarini elektron tarzda yuritilishida ham kamchilik bo'lib, bajarilgan ishlar to'liq kiritilmagan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ishchi guruhning xulosaviy ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayevga:

- kafedralarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;

- Markaz professor-o'qituvchilari faoliyati samaradorligini o'rganishda xolisona yondashuv hamda jarayonni samarali tashkil etishda shaffoflik ta'minlansin.

3. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri G.Tagayevga:

- malaka oshirish kursi tinglovchilari va pedagogika markazi professor-o'qituvchilari uchun rejalashtirilgan qisqa muddatli o'quv kurslarini samarali va o'z vaqtida tashkil etilishini yo'lga qo'yish;

- kafedra ilmiy, kasbiy salohiyatini oshirish;

- mahalliy va xorijiy grantlarga ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

- kafedrada elektron nashrlar sonini ko'paytirish, fanlar kesimida nashr ishlarining sifati va samarasini oshirish;

- SCOPUS bazasidagi hamda Web of science bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola chop ettirish;

- kafedra professor-o'qituvchilarining belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash;

- kafedra rejasida kiritilgan barcha ish turlarini o'z vaqtida tashkil etilishini nazorat qilish;

- bir hafta muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.

4. Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri M.Raximovaga:

- malaka oshirish kursi tinglovchilari va pedagogika markazi professor-o'qituvchilari uchun rejalashtirilgan qisqa muddatli o'quv kurslarini samarali va o'z vaqtida tashkil etilishini yo'lga qo'yish;

- kafedra ilmiy, kasbiy salohiyatini oshirish;

- mahalliy va xorijiy grantlarga ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

- kafedrada elektron nashrlar sonini ko'paytirish, fanlar kesimida nashr ishlarining sifati va samarasini oshirish;

- rejalashtirilgan nashr ishlarini belgilangan muddatlarda tayyorlash;

- SCOPUS bazasidagi hamda Web of science bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola chop ettirish;

- kafedra professor-o'qituvchilarining belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash;

-shaxsiy ish rejalarning yuritilishiga jiddiy e'tibor qaratish;

- kafedra rejasida kiritilgan barcha ish turlarini o'z vaqtida tashkil etilishini nazorat qilish;

- bir hafta muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



S.Murodov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-iyunda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 26-iyun

*3/3.1 -son
Samarqand shahri*

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini
ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida**

Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori v.v.b. S.Murodov so'zga chiqdi: – Hurmatli yig'ilish qatnashchilari bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.1.bandi Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish to'g'risida bo'lib, Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b. Babaxolov G'ayrat Tashbatirovichni dotsentlik ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti ilmiy unvoniga nomzod Babaxolov G'ayrat Tashbatirovich haqida ma'lumot:

Babaxolov G'ayrat Tashbatirovich 1977-yilda Samarqand viloyati Paxtachi tumanida tug'ilgan. 1994-yilda Paxtachi tumanidagi 25-maktabni tugatgan. Ma'lumoti oliy, 2000-yilda Navoiy davlat pedagogika institutining "Tarix qo'shimcha huquqshunoslik asoslari" yo'nalishini 2013-yilda Samarqand davlat universitetini "O'zbekiston tarixi" mutaxassisligi bo'yicha magistraturani tamomlagan.

Mehnat faoliyati 2000-2002 yillarda Ziyovuddin qurilish va kommunal xo'jalik kasb-hunar kollejida tarix va huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi, 2002-2004-yillarda mazkur kollejda Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2004-2006-yillarda Ziyovuddin qurilish va kommunal xo'jalik kasb-hunar kollejida O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2006-2010-yillarda Paxtachi pedagogika kollejida O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2010-2017-yillarda Samarqand Huquqshunoslik kolleji direktori, 2017-2020-yillarda Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i, 2020-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Samarqand viloyat bo'limi boshlig'i, 2023-2024 yillarda - Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i, 2024-2025 yillarda Samarqand viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasida bo'lim boshlig'i, 2025-yil 11-apreldan hozirgi vaqtga qadar Samarqand tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.

Babaxolov G'ayrat Tashbatirovich maktab, professional ta'lim tizimida, shuningdek, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish, ularni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish jarayonlarida bevosita ishtirok etib, yaxshi natija va tajribaga ega bo'lgan.

G'.Babaxolov 2023-yil 4-may kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02

raqamli Ilmiy kengashda "Tadbirkorlik falsafasi – mamlakat aholisining ishbilarmonlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asosi" mavzusidagi 09.00.04 falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Bugungi kunga qadar iqtidorli olim va malakali pedagog sifatida monografiya hamda ilmiy maqolalar uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, shuningdek 20 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifidir. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan.

G'.Babaxolov qaysi vazifada faoliyat ko'rsatmasin, doimo o'ziga yuklatilgan topshiriq hamda vazifaga yuksak mas'uliyat bilan yondashadi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini ko'rsatib kelmoqda.

G'.Babaxolov ayni paytda Samarqand tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlashi bilan birgalikda, Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat ko'rsatib ishlab kelmoqda. U o'ziga berilgan har qanday vazifani vijdonan va sharaf bilan bajara oladi.

"Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Xo'jamqulov Anvar Jozilovichni v/b dotsentlikka tavsiya etish to'g'risida".

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v/b ilmiy unvoniga nomzod Xo'jamqulov Anvar Jozilovich haqida ma'lumot:

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich maktab ta'limi tizimida pedagoglarni kasbiy rivojlantirish, ularni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish jarayonlarida bevosita ishtirok etib, yaxshi natija va tajribaga ega bo'lgan. Maktab adabiyot fani o'qituvchilarini adabiy-nazariy qonuniyatlarni asosida yozuvchilarning poik uslubini tadqiq etish natijasida 2024-yil 24-dekabr kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli ilmiy kengashda "Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi" mavzusidagi 10.00.02 – o'zbek adabiyoti ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Bugungi kunga qadar iqtidorli olim va malakali pedagog sifatida monografiya hamda uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, shuningdek 50 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifidir. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan.

A.Xo'jamqulov tomonidan tayyorlangan "Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi" nomli monografiya, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari uchun "O'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari", "Tanlov moduli", "Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o'zaro hamkorlik", "O'quv jarayonini samarali tashkil etish" modullari bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar to'plamlaridan ayni kunda viloyat pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida amalda foydalanilmoqda.

A.Xo'jamqulov qaysi vazifada faoliyat ko'rsatmasin, doimo o'ziga yuklatilgan topshiriq hamda vazifaga yuksak mas'uliyat bilan yondashadi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini ko'rsatib kelmoqda.

A.Xo'jamqulov ayni paytda Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi vazifasida ilmiy-pedagogik yo'nalish hamda ijtimoiy hayotda jonkuyarlik namunalarini ko'rsatib ishlab kelmoqda. O'ziga berilgan har qanday vazifani vijdonan va sharaf bilan bajara oladi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida":

2.1. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v/b G'.Babaxolovni nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga dotsent ilmiy unvonini olish uchun tavsiya etilsin.

2.2. Pedagogik markaz Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v/b G'.Babaxolovni dotsentlik diplomini olish uchun Kengashga taqdim etilgan hujjatlari OAKga taqdim etilsin.

3. "Dotsent ilmiy unvoniga v.b. sifatida tavsiya etish to'g'risida":

3.1. Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Xo'jamqulov Anvar Jozilovichning nomzodi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablariga muvofiq dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkazilsin.

3.2. Talabgor bir yil muddatdan keyin tegishli hujjatini Oliy attestatsiya komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritilishi lozimligi belgilab qo'yilsin.

4. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish Kengash kotibi D.Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

S.Murodov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-iyunda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun

3/3.2 -son

Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari
tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini
tasdiqlash to'g'risida**

SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovaning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.2. bandi markaz professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan uslubiy qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalarlar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

SamVPMM kafedra professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayonnomalaridan ko'chirma taqdim qilingan.

Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr
ishlari

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi				
1	M.Yakubjanova K.Boltayeva	Дидактические материалы для начальных классов	T.: R.Raxmonova – Samarqand davlat universiteti professori. I.: M.Yakubjanova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.	34 bet
2	I.Raimkulova	Основы методики преподавания РКИ	T.: Z.Yovqacheva – O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti, Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). I.: D.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti.	86 bet
3	D.Yunusova	Adabiyot darslarida zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari (5E modeli asosida)	T.: N.Qobulova – Navoiy pedagogika universiteti dotsenti. I.: M.Raximova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish	36 bet

			metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	
Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası				
5	N.Yunusova A.Kudratova K.Suvanov D.Nurmanova M.Rasulova E.Po'latova K.Normamatova	Samarali vositalar to'plami	T.: Z. Nazarova – SamDU Kattaqo'rg'on filiali, boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti. I.: B.Amrilloeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).	56 bet
6	J.Oripov M.Kandaxarov	Ta'limdagi huquqiy- me'yoriy hujjatlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	T.: X.Djurakulov – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrası mudiri, falsafa doktori (PhD) I.: G.Tagayev – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	34 bet
7	D.Kushanova M.Fayziyeva	"Tarix darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholash" modulini o'qitish metodikasi	T.: F.Rashidova – Samarqand davlat universiteti, tarix fakulteti "Jahon tarixi" kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (PhD). I.: G.Tagayev – Samarqand viloyat PMM, Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	52 bet
Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi				
8	M.Jabborova D.Xalilova	O'tmishdan saboq – kelajakka ilk qadam (I-II qism)	T.: Sh.Taylanova – O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti v/b professori I.: M.Nigmatova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi.	76 bet

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası				
9	M.Kuvandikova	Bola aziz, odobi undan aziz	T.: S.Nurmuxammedova – Samarqand shahar 53-DMTT direktori. I.: M.Nigmatova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi.	20 bet

QAROR QILADI:

1. Kengash kotibi D.Yunusovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası				
1	M.Yakubjanova K.Boltayeva	Дидактические материалы для начальных классов	T.: R.Raxmonova – Samarqand davlat universiteti professori. I.: M.Yakubjanova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi.	34 bet
2	I.Raimkulova	Основы методики преподавания РКИ	T.: Z.Yovqacheva – O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti, Rus tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). I.: D.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti.	86 bet
3	D.Yunusova	Adabiyot darslarida zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari (5E modeli asosida)	T.: N.Qobulova – Navoiy pedagogika universiteti dotsenti. I.: M.Raximova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	36 bet
Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası				
5	N.Yunusova A.Kudratova K.Suvanov D.Nurmanova M.Rasulova E.Po'latova K.Normamatova	Samarali vositalar to'plami	T.: Z. Nazarova – SamDU Kattaqo'rg'on filiali, boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti. I.: B.Amrilloeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat	56 bet

			markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).	
6	J.Oripov M.Kandaxarov	Ta'limdagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	T.: X.Djurakulov – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali "Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari" kafedrası mudiri, falsafa doktori (PhD) I.: G.Tagayev – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	34 bet
7	D.Kushanova M.Fayziyeva	"Tarix darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholash" modulini o'qitish metodikasi	T.: F.Rashidova – Samarqand davlat universiteti, tarix fakulteti "Jahon tarixi" kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (PhD). I.: G.Tagayev – Samarqand viloyat PMM, Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	52 bet
Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi				
8	M.Jabborova D.Xalilova	O'qitishdan saboq – kelajakka ilk qadam (I-II qism)	T.: Sh.Taylanova – O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti v/b professori I.: M.Nigmatova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi.	76 bet

3. Pedagogika markazi professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishlarini "Uslubiy ko'rsatma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası				
9	M.Kuvandikova	Bola aziz, odobi undan aziz	T.: S.Nurmuxammedova – Samarqand shahar 53- DMTT direktori. I.: M.Nigmatova –	20 bet

			Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi.	
--	--	--	---	--

4. Markazning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- Markaz professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan o'quv uslubiy qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;

- nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markazning ARMga belgilangan (uslubiy qo'llanma 15 ta, uslubiy ko'rsatma 30 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markaz saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



S. Murodov

D. Yunusova